

GLOBALASHUV SHAROITIDA MILLIY MUSIQIY MEROSNING QADRIYATLI MUNOSABATINI SAQLAB QOLISH VA MUSIQA TA'LIMINING KELAJAKDAGI VAZIFALARI

Xojimamatov Azimjon Fayzullo o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

Farg'ona, O'zbekiston

azimjonxojimamatov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16742723>

Annotatsiya

Mazkur maqolada davlat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan har qanday jamiyatda yosh avlod tarbiyasi, tarbiya shaxsni jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlariga tayyorlash, shuningdek, uning ma'naviy, aqliy, jismoniy va musiqiy rivojlanishiga muntazam ta'sir etib boruvchi uzluksiz jarayonlar, endilikdagi asosiy vazifa ana shu yoshlarga ta'lim va tarbiya berish, ularning kuch va sadoqatini ana shu Vatanga muhabbat, yurt tinchligi va osoyishtaligi, respublika mustaqilligini mustahkamlash yo'lida safarbar etish kabilar ko'rsatilgan.

Tayanch so'zlar: milliy musiqiy meros, integratsiya, tafakkur, did, nafasat, didaktik tarbiya, estetik, ideal, terma, maqom, mumtoz, meros, san'at

Аннотация

В данной статье одним из наиболее актуальных вопросов, стоящих перед государством, является воспитание молодого поколения в любом обществе, подготовка человека к социально-экономическим производственным отношениям в обществе, а также непрерывные процессы, регулярно влияющие на его духовное, умственное, физическое и музыкальное развитие показано.

Ключевые слова: национальное музыкальное наследие, интеграция, мышление, вкус, изысканность, дидактическое образование, эстетика, идеал, термин, статус, классика, наследие, искусство

Musiqiy didaktik tarbiya asosida musiqaning tarbiyaviy ahamiyatiga urg'u berish, uzluksiz ta'limda musiqa didaktikasi imkoniyatlaridan ratsional foydalanish talab etiladi. Bolada juda yoshligidan boshlab musiqa hissiyotini tarbiyalash lozim, bu esa uning ruhiy holatini mustahkamlaydi. Darhaqiqat, musiqa nafaqat insonning ruhiyatiga samarali ta'sir etuvchi vosita, balki o'z mohiyati va jamiyatdagi maqsad va vazifalariga ko'ra, tarbiya vositasi hamdir. Musiqa shaxs ma'naviy barkamolligining tarkibiy va o'z o'rnida ajralmas qismlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Musiqa san'atining yosh avlodga kuchliroq ta'sir ko'rsatishi faqat uni tinglash yoki chuqur idrok etishni emas,



balki o'quvchilarning shu san'at bo'yicha musiqa madaniyati darslari jarayonida o'rganilayotgan kuy-qo'shiqlarni ularning tafakkurida shakllantirish va rivojlantirishni taqozo qiladi.

Musiqa ta'limining asosiy maqsadi va vazifasi o'sib kelayotgan barkamol avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qiladigan, millat va g'ururni umumbashariyat oldida o'zining nafisligi, milliy kuy ohanglari ila ajralib turadigan jihatlari bilan ko'rsata oladigan, o'ziga xosligini har qanday tashqi ta'sirlardan saqlay oladigan bo'lishi lozim. Musiqiy merosimizni qadrlaydigan iqtidorli yoshlarni tarbiyalab, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish, bu borada ularning zaruriy bilim va amaliy malakalarini tarkib toptirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish barchamizning asosiy vazifamizdir.

Musiqa ta'limi va didaktik tarbiya integratsiyasi ta'lim oluvchilarning estetik-axloqiy dunyoqarashini rivojlantiradi. Xalqimiz asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to'pladi, uni takomillashtirdi va ijtimoiy hayotida turli vositalar orqali kelajak avlodga meros qoldirdi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega, o'quvchi-yoshlarni va talabalarni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy-g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu Nasr Al-Forobiy «Bu fan tanning sog'ligi uchun foydalidir» degan edi, bobomiz Shayx Saodiy esa «Musiqa odam ruhining yo'ldoshidir», deb ta'kidlaydi¹.

Musiqa ta'limi o'quvchi-yoshlar va talabalarining ma'naviy va madaniy dunyosini har tomonlama takomillashtirib, ularda olijanob fazilatlarni kamol topishida ta'sirchan vosita bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi-yoshlar va talabalarni doimo go'zallikka intilib va kundalik hayotida ana shu go'zallik qoidalariga amal qilib yashashga o'rgatish nafosat tarbiyasini amaliy belgilaridan biridir. «Musiqa madaniyati» fanining Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi² asosida o'quvchilarda ijodkorlik, kuzatuvchanlik, musiqiy did, musiqiy madaniyat, tashabbuskorlikni shakllantirish, taassurot olamini boyitish, tafakkur ko'lamini kengaytirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Musiqiy ta'lim jarayonida o'quvchi-yoshlar va talabalarda musiqa san'atiga nisbatan qiziqish va havasning ortib borishi, musiqa mashg'ulotlari asosida ularda hissiyot, idrok tarbiyasining o'sib borishi, qo'shiqlarni xushohang kuylash, musiqani ishtiyoq bilan tinglash, asarlarni tahlil qilish orqali musiqadagi xushsozlik, xushovozlik, ya'ni go'zallikni sezadi. Shuni ta'kidlash joizki, musiqiy ta'limning asosiy maqsadi - o'quvchi-yoshlar va talabalarining

¹ Интернет сайти. Hozir.org. 2017 йил 5 майда муружаат қилинган.

² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги «Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиqlаш тўғрисида»ги 187-сон қарори

nafosat, didlarini badiiy asarlar orqali shakllantirishdir. Keyingi kuzatuvlar shundan dalolat bermoqdaki, ko'pchilik yoshlarimiz nafosat, did haqida yetarli ma'lumotlarga ega emaslar. Ushbu masalalarni hayotga tatbiq etishda nafosat tarbiyasi katta o'rin egallaydi. Nafosat tarbiyasi o'quvchi-yoshlar va talabalarni voqelikdagi, san'at va tabiatdagi kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, shuningdek, turmushidagi go'zallikni idrok qilish hamda to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotga go'zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir. Nozik didli bo'lish, go'zallikni fahmlay va qadrlay olish, badiiy madaniyatni tushunish, xullas o'z hayotini go'zallik qonunlari asosida ko'ra olish komil insonning eng zaruriy fazilatidir. Insonda go'zallikni tushunish birdaniga vujudga kelmaydi, balki u jamiyat va odamlar, atrof-muhit ta'sirida shakllanib boradi. Shunga ko'ra, insonning badiiy rivojlanish qonunlari ijtimoiy rivojlanish qonunlari bilan bog'langan.

Innovatsion uzluksiz musiqa ta'limi va didaktik tarbiya integratsiyasi jarayonida yoshlarda badiiy-estetik tarbiyaga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. "Badiiy tarbiya asosan ijtimoiy-estetik ideallar orqali namoyon bo'ladi. Nafosat tarbiyasi, eng avvalo, har bir kishida badiiy hissiyot tuyg'ularini badiiy tarbiyalashdir"³. Bunday yuksak nafosatlilik aql-zakovatdan xoli bo'ladi, degan ma'noni tushunmaslik kerak. O'quvchi-yoshlarning va talabalarining barkamol inson bo'lib shakllanishida bu ikki tomon bir-birini to'ldiradi. Chinakam san'at asarida hissiyot chuqur g'oyaviy, aqliy mazmun bilan idrok qilish birikib ketadi. Nafosat tarbiyasi aql bilan hissiyotni tarbiyalash, yanada aniqroq qilib aytganda, hissiyot vositasi bilan aqlni tarbiyalashdir. Bu ikki tomon bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

Ilmiy dunyoqarashga asoslangan nafosat, did, tuyg'ular va ko'nikmalarning o'sib borishi jarayonida insonning o'zi ham ma'naviy boyib, olijanob bo'lib boradi, uning hayoti yanada sermazmun bo'ladi. Har bin insonning o'zi yashayotgan zamoniga nisbatan mehr-muhabbati ortib boradi. Bularning hammasi har bir insonda go'zallikni his etish, bilish kabi qobiliyatni shakllantiradi va uni yanada rivojlantiradi. Chinakam nozik did, haqiqiy go'zallikdan lazzatlana olish, mehnat, turmush, yurishturish, san'atda nafosatni idrok etish va yaratishga ehtiyoj sezish demakdir.

Didsizlik kishining voqelikka bo'lgan ijobiy munosabatini buzib yuboradi. Natijada u nafosatga loqayd qaray boshlaydi. Nafosat tarbiyasi bugungi kunda shuning uchun ham muhimki, did, idrok-farosatlilik mehnat, ishlab chiqarish,

³ Cathrine Sadolin. Complete vocal technique. 2012. 274page. 58-69. www.completevocalinstitute.com.

kundalik amaliy faoliyatda har bir inson uchun hayotiy ehtiyojga aylanib qolgan. Ba'zan hayotda past didli, ma'naviy qashshoq kishilarni ham uchratib qolamiz. Bunday kishilar aqlan, axloqan va ruhan zaifligini yashirish uchun soxta xatti-harakatlar qiladilar, o'zlariga yarashmaydigan ishlar qiladilar, didsiz kiyinadilar, maza-matrasiz, shovqin-surondan iborat musiqa va ashulalarni tinglaydilar. Bundaylarni kuzatarkansiz, ularning mehnat gashtini surmagan, hayot tashvishlariga beparvo loqayd kimsalar ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Buning uchun esa innovatsion uzluksiz musiqa ta'limi va didaktik tarbiya integratsiyasi asosida yoshlarda musiqa madaniyatini shakllantirish, u asosida did va nafosatni anglash tizimini yaratish talab etiladi.

Shuning uchun ham uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi-yoshlar va talabalarning musiqiy madaniyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishi lozim. Chunki alla, qo'shiq, yalla, terma, lapar, yor-yor, o'lan, terma, ashula, katta ashula va hatto mumtoz musiqa asarlarining ritmik ohangi, usullari, o'ziga xos koloritmik xususiyatlari bilan xalqimizning udum, urf-odatlar va an'analari⁴ asosida musiqiy ohanglar orqali tarannum etiladi va har bir o'quvchi yosh uni eshitadi, tushunadi, idrok etadi va zavq oladi. Pedagoglar ta'lim-tarbiya birligiga erishmoqchi ekan, shuni alohida nazarda tutmog'i lozimki, bu tarbiyaning muvaffaqiyati quyidagi pedagogik shart-sharoitlar asosida amalga oshirib borilishi mumkin:

– har bir darsni estetik nuqtai nazardan aniq maqsadga qaratilgan holda tashkil etish;

– dars uchun musiqiy materiallar, o'rgatish uslub va vositalarni to'g'ri tanlay olish;

– ta'lim oluvchilarda musiqiy estetik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan mantiqiy va maqsadga yo'naltirilgan uzluksizlikni ta'minlash;

– musiqiy tarbiyada ta'lim bilan tarbiyaning mushtarak bo'lishligi o'quv jarayonni tashkil etishda ta'limning ilmiyligi, ko'rgazmali, tushunarli, o'zlashtirilgan bilimlarning mustahkam bo'lishi kabi tamoyillarga jiddiy amal qilgan holda olib borilishiga erishish lozim. Musiqa ta'limida pedagog o'z oldiga ta'lim oluvchilarning musiqiy estetik madaniyatni shakllantirishni maqsad qilib qo'ysa, u holda quyidagi asosiy xulosalarni bayon etish lozim bo'ladi. Yuksak badiiy didni tarbiyalashda san'atning hamma turlari muhim va ularning har biri o'z xususiyati va imkoniyatiga ega. Maktab ta'limida estetik tarbiyani amalga oshirish o'quvchilarda yuksak estetik badiiy didni shakllantirish uchun zaruriy zaminni hozirlab berish va yoshlarga san'at asarlarining estetik mohiyatini

⁴ Панжиев Қ. Сурхондарё вилояти ўзбек халқ музыкажоди. Монография.- ТДПУ. 2016. –Б.56-66.

singdirishning muhim tarmog'idir. Shu munosabat bilan musiqa tarbiyasini amalga oshirishda o'quvchilarning musiqaviy ma'lumotlariga alohida e'tibor berish, ularni dastur talablariga muvofiq musiqaviy bilim bilan qurollantirish, musiqa haqida bilim, ma'lumotlarni puxta o'zlashtirishlariga erishish eng muhim vazifalardandir.

O'quvchi-yoshlarning badiiy did tarbiyasining asosi ham maktabda dars jarayoni, o'quv mashg'ulotlari vaqtida vujudga keladi. Xo'sh, hozirgi maktablarimizda o'quvchilarning badiiy didlari biz xohlagandek shakllanayotganmikan? Savol tariqasida shularni aniqlash mumkinki, ko'pchilik o'quvchilarimizda g'arb musiqasiga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Ularni maktab dasturidagi qo'shiqlar borgan sari qiziqitirmay qo'ymoqda. Hatto ulardan «qanday kuy va qo'shiqlarni yoqtirasizlar?» deb so'ralsa, albatta g'arb davlatlaridagi hozirgi mashhur qo'shiqlarni misol tariqasida keltiradilar. Ularning bu darajada g'arb davlatlari madaniyatiga ixlos qo'yishlari natijasida badiiy didlari ham shunga moslashib borishi ommalashmoqda. Buni ba'zi o'quvchilarning tashqi ko'rinishlari ham isbotlab turibdi. Biz esa maktablarimiz qat'iy suratda, faqat ta'lim maktabi emas, balki estetik maktab bo'lishiga intilamiz. O'quvchilarda estetik didni tarbiyalashda maktabning butun hayoti barobar qatnashsa-da, musiqa darsining alohida ahamiyati bor. Ya'ni musiqa darsi badiiy didni tarbiyalashda ta'sirchan vositadir. Bu borada eng mas'uliyatli vazifa musiqa o'qituvchilariga topshiriladi. Zero, «musiqa madaniyati va san'ati insonning ijtimoiy faol mavjudot bo'lib shakllanishi bilan hamohang tarzda odamzodning tabiat va jamiyatdagi o'rni va faoliyatini begilovchi mehnat, ijod va yashash sharoitlari natijasi sifatida paydo bo'ladi⁵». Demak, musiqa madaniyati olamni bilish, his qilish, idrok etish va uning go'zalliklaridan lazzatlanishning alohida bir shaklidir. U go'zallik va mukammallik qonunlari asosida yashaydi va rivojlanadi. U shu ma'noda musiqa – din, fan va falsafa bilan bir qatorda turadi, insondagi insoniylikni kamol toptiradi, olam sirlarini kashf etadi..

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3160-son "Ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishning yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi Qarori. // Xalq so'zi. 2017 yil 28 iyun.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909 sonli Qarori./ Xalq so'zi. 2017 yil 16 may.

⁵ Феруза Асқар. Музыка ва инсон маънавияти. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2000. –Б. 31

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B.464.
4. Ayxodjayeva Sh.I. Maqom taronalari (janr xususiyatlari, ijro an'analari): Avtoref. dis. ... san'atshunoslik fan. nom. – Toshkent: O'zbekiston davlat konservatoriyasi, 2007. –B.15
5. Asqar F. Musiqa va inson ma'naviyati. Mas'ul muharrir: M.Hamidova. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000. –B. 96
6. Jakbarov M. Komil inson g'oyasi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2002. –B.32.
7. Is'hoq Rajabov. Maqomlar. Toshkent.: San'at nashriyoti. 2006. –B.19.
8. Karimova D.A. "Musiqa madaniyati" fani o'qituvchisining zamonaviy pedagogik mahorati. // Zamonaviy ta'lim. 2018. №5. –B. 7.
9. Mannopov S. O'zbek xalq musiqa madaniyati. –Toshkent.: Yangi asr avlodi. 2004. –B, 12.
10. Uspenskiy V.A. Klassicheskaya muzyika uzbekov// V.A.uspenskiy. – Toshkent, 1980. –S. 33.
11. Shermuxamedov S. Falsafa fani yangilanishining ba'zi muammolari. – Toshkent: Fan, 1996. –B.31.
12. Yakovlev Ye.V. Realizasiya aksiologicheskogo podxoda v pedagogicheskom issledovanii // Vestnik YuUrGU. Seriya: Obrazovaniye. Pedagogicheskiye nauki. – 2012. – № 4(263). – S. 26-29.
13. Yunus Rajabiy. O'zbek xalq cholg'u musiqasi. –Toshkent:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1981. –B.126.
14. Fitrat A. O'zbek xalq musiqasi va uning tarixi. – Toshkent: Fan, 1993. – 124 b.
15. Oripov Zokirjon. Sharq musiqiy manbashunosligi (X-XI asrlar). O'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir: O. Ibrohimov. –Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Respublika metodika va axborot markazi, O'zbekiston davlat konservatoriyasi. 2008. –B.162.

